Davlat pensiya ta'minotini boshqarish to'g'risida tushuncha. Boshqarish ob'ektlari va sub'ektlari. Davlat pensiya ta'minoti tizimini boshqarish organlari, ularning guruhlanishi. Boshqarish organlarining tashkiliy tuzilishi, funksiyalari, huquq va majburiyatlari. Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi - davlat pensiya ta'minoti tizimini boshqarish organi sifatida. Pensiya jamg'armasi faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari. Pensiya jamg'armasining tashkil etilishi. Pensiya jamg'armasining tashkiliy tuzilishi, tarkibiy bo'linmalarining vazifalari, funksiyalari, huquq va majburiyatlari. Pensiya jamg'armasi faoliyatini isloh qilish va takomillashtirish yo'nalishlari. Zamonaviy sharoitda davlat pensiya ta'minotini boshqarish organlari faoliyatini takomillashtirish yo'llari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *Ko'rgazmali (vizuallashtirgan) ma'ruza, aqliy hujum, munozara, taqdimot*

[A3,A4,A5,A6, A7,A8,Q13,Q14,Q15]

2.2.9. Pensiya ta'minotini mablag' bilan ta'minlash manbalari (4 soat)

Pensiya ta'minotini mablag' bilan ta'minlash manbalari, ularning mazmuni, guruhlanishi, nisbatlari. Pensiya ta'minotini mablag' bilan ta'minlashning davlat va nodavlat manbalari. Ijtimoiy sug'urtaning mohiyati va ahamiyati. Ijtimoiy sug'urta - pensiya ta'minotining moddiy va moliyaviy asosi. Pensiya ta'minotini mablag' bilan ta'minlashda xo'jalik sub'ektlari va aholining ishtiroki. Pensiya ta'minotini mablag' bilan ta'minlash manbalarining barqarorligini ta'minlash. Pensiya ta'minotini mablag' bilan ta'minlash manbalarini mustahkamlash yo'llari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *Ko'rgazmali (vizuallashtirgan) ma'ruza, aqliy hujum, munozara, taqdimot*

[A3,A4,A5,Q7,Q10,Q13,Q14,Q15]

2.2.10. O'zbekiston Respublikasi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi (8 soat)

Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining mohiyati va zarurligi. Pensiya jamg'armasining asosiy vazifalari. Pensiya jamg'armasining O'zbekiston Respublikasi jamlanma budjeti tarkibida tutgan o'рни. Pensiya jamg'armasining daromadlari, ularning tarkibi, shakllanish mexanizmi. Pensiya jamg'armasi daromadlari turlari. Yagona ijtimoiy to'lov, uning sub'ektlari, ob'ekti va to'lov stavkasi. Fuqarolarning ish xaqidan sug'urta badallari, ularning to'lanish tartibi va stavkalari. Yuridik shaxslarning tovar aylanmasi va tovar realizatsiyasi, bajarilgan ishlar (xizmatlar) hajmidan ajratmalar. Boshqa turdagi tushumlar. Pensiya ta'minotini mablag' bilan ta'minlash manbalarini mustahkamlash yo'llari. Pensiya jamg'armasi xarajatlari tarkibi. Ishlamaydigan pensionerlarga to'lanadigan pensiyalar. Ishlab turgan pensionerlarga to'lanadigan pensiyalar. Kommunal xizmatlar uchun to'lovlarni kompensatsiyalash xarajatlari. Ijtimoiy sug'urta bo'yicha Pensiya jamg'armasidan to'lanadigan nafaqalar. Pensiya jamg'armasining boshqa xarajatlari. Islohotlarning hozirgi bosqichida Pensiya jamg'armasi xarajatlarini optimallashtirish. Pensiya jamg'armasining moliya bozoridagi ishtiroki.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *Ko'rgazmali (vizuallashtirish) ma'ruza, aqliy hujum, munozara, taqdimot*

[A3,A4,A6,Q8,Q11,Q13,Q14]

2.2.11. O'zbekiston Respublikasi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi budjetini rejalashtirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash (6 soat)

O'zbekiston Respublikasi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi budjeti to'g'risida tushuncha, uni rejalashtirish, ko'rib chiqish va tasdiqlash tartibi. Pensiya jamg'armasi daromadlari va xarajatlari mutanosibligini ta'minlash, unga ta'sir etuvchi omillar. Aktuar hisoblar va aktuar modellashtirish nazariyasi. Demografik omillar, makroiqtisodiy omillar, mehnat bozori va mehnat resurslari omili. Pensiya sug'urtasi tizimida ishtirok etuvchilar statistikasi va Pensiya jamg'armasining pensionerlar oldidagi majburiyatlari hajmining o'zgarishi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Bosh nazorat-taftish boshqarmasi tarkibida budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'laridan maqsadli foydalanilishi ustidan nazorat boshqarmasi va uning hududiy bo'linmalarining tashkil etilishi. Ularning Pensiya jamg'armasi mablag'laridan maqsadli foydalanish ustidan nazoratni amalga oshirish bo'yicha vazifalari

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *Ma'ruza, klaster, munozara, blits-so'rov*

[A3,A4,A5,Q12,Q14]

2.2.12. O'zbekiston Respublikasi Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasidan to'lanuvchi pensiyalarning turlari, ularni hisoblash va to'lash tartibi (12 soat)

Davlat pensiyalarining turlari. Davlat pensiyalarini tayinlash uchun talab etiladigan umumiy shartlar. Yoshga doir pensiyalarning tayinlanish shartlari. Nogironlik pensiyalari, ularni tayinlash asoslari. Fuqarolarning boquvchisini yo'qotganlik pensiya ta'minotiga oid huquqlari. Boquvchisini yo'qotganlik pensiyalarining tayinlanishi shartlari. Pensiya miqdorini aniqlash. Ish staji to'liq bo'lmaganda pensiyalarni tayinlash. Pensiya hisoblash uchun ish haqini aniqlashning umumiy tartibi. Pensiya tayinlash uchun zarur bo'gan mehnat faoliyati turlari. Pensiyani hisoblash uchun ish stajini aniqlash tartibi. Pensiya tayinlash uchun murojaat etish tartibi. Pensiyani tayinlash muddatlari. Pensiyani qayta hisoblash shartlari. Pensiyani to'lash muddatlari. Pensiya jamg'armasining hududiy bo'linmalarida ro'yxatda turuvchi ishlovchi pensionerlarga pensiya to'lash tartibi. O'zbekiston Respublikasi ayrim vazirlik va idoralarda hisobda turuvchi ishlovchi pensionerlarga pensiya to'lash tartibi. Jamg'arma hisobidan to'lovlarni moliyalashtirish tartibi. Pensiyalar tayinlanishi va qayta hisoblab chiqilishini tizimli asosda doimiy tahlil qilish va monitoringini olib borish, fuqarolarning pensiya ta'minotiga yo'naltiriladigan mablag'lardan qat'iyan maqsadli foydalanilishini ta'minlash. Mehnat mayibligi yoki kasb kasalligi oqibatidagi nogironlik bo'yicha tayinlangan pensiyalarni to'lashga mablag'larni da'volar bo'yicha aybdor

yuridik va jismoniy shaxslardan belgilangan tartibda undirib olishni tashkil qilish, tibbiy-mehnat ekspertizasi xizmati faoliyatini tashkil etish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *Ma'ruza, klaster, munozara, blits-so'rov*

[A3,A4,A5,Q12,Q14]

2.2.13. Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha boshqa nafaqalarni tayinlash va to'lash tartibi (4 soat)

Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha boshqa nafaqalarning turlari, ularni tayinlash va to'lashni tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar. Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi, uni tayinlash va to'lash tartibi. Nafaqa turi bo'yicha qo'llaniladigan imtiyozlar. Ijtimoiy sug'urta bo'yicha nafaqalarni tayinlash uchun umumiy ish stajini aniqlash va hisoblash tartibi. Homiladorlik va tug'ish bo'yicha nafaqa, uni hisoblash va to'lash tartibi. Bola tug'ilganda beriladigan nafaqa, uni hisoblash va to'lash tartibi. Qo'shimcha dam olish kuni uchun nafaqa. Dafn etish marosimlari uchun beriladigan nafaqa, uni hisoblash va to'lash tartibi. Nafaqalarni tayinlash va to'lash tartiblarining takomillashuvi.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *Ma'ruza, muammoli holatlarni echish, sinkveyn, blits-so'rov, klaster*

[A3,A4,A5,Q13,Q14,Q15]

2.2.14. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimi (4 soat)

Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimining mazmuni va ahamiyati. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimining qonuniy va me'yoriy-huquqiy asoslari. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimini tashkil etish. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish. Jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlarini amalga oshirish tartibi. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotida ishtirok etuvchi tomonlarning huquq va majburiyatlari. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti aktivlarini boshqarish. Pensiya aktivlarini moliya bozorida samarali joylashtirish. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimini boshqarish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *Ma'ruza, muammoli holatlarni echish, sinkveyn, blits-so'rov, klaster*

[A3,A4,A5,Q13,Q14,Q15]

2.2.15. Xorijiy davlatlar pensiya ta'minoti tizimlari (6 soat)

Xorijiy davlatlarda ijtimoiy siyosat yo'nalishlari va ularni amalga oshirishga mas'ul ijtimoiy institutlar. Xorijiy davlatlar pensiya tizimlari turlariga umumiy tavsif. Rivojlangan xorijiy davlatlar pensiya tizimlari modellari. Xorijiy davlatlarda davlat va nodavlat pensiya tizimlari. Majburiy va ixtiyoriy pensiya ta'minoti. MDH davlatlari pensiya ta'minoti tizimlarining o'ziga hos xususiyatlari. Bu davlatlar pensiya tizimlaridagi islohotlarning asosiy yo'nalishlari. Xorijiy davlatlar pensiya tizimlarini tashkil etish va fuqarolarning pensiya ta'minotini amalga oshirishdagi ijobiy tajribalar va ulardan O'zbekistonda foydalanish shart-sharoitlari va imkoniyatlari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *Ma'ruza, muammoli holatlarni echish, sinkveyn, blits-so'rov, klaster*

[A5,A6,A7,A8,Q14,Q15]

2.2.16. O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minoti tizimi taraqqiyoti istiqbollari (6 soat)

O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minoti tizimini rivojlantirishning zarurligi, omillari va asosiy yo'nalishlari. O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minotining tashkiliy-huquqiy asoslarini isloh qilishning zarurligi. Bu borada amalga oshirilgan tadbirlar, ularning mazmuni, asosiy natijalari. Pensiya ta'minotini boshqarish tizimini takomillashtirish. Bosqaruv organlari faoliyatini zamonavi talablar darajasida tashkil etish vazifalari. Pensiya ta'minoti moliyaviy manbalarini mustahkamlash. Mablag'larning shakllanishi va ulardan foydalanish ustidan nazoratni samarali tashkil qilish. Mablag'larning shakllanishi va ulardan foydalanish ustidan nazoratni amalga oshiruvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirish. Pensiya ta'minotining yagona axborot tizimini

yaratish va takomillashtirish. Pensiya ta'minoti xizmatlarini avtomatlashtirish istiqbollari. Pensiya ta'minotini samarali boshqarishdagi muammo va yechimlar.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *Ma'ruza, muammoli holatlarni echish, sinkveyn, blits-so'rov, klaster*

[A1,A2,A3,A4,A5,A8,Q13,Q14]

3. MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING SHAKLI VA MAZMUNI

Mustaqil ta'lim magistrantlar uchun majburiy o'quv mashg'uloti hisoblanadi va rejali xususiyatga ega. Mustaqil ta'limning mavzulari magistrantlar uchun mustaqil o'rganishlari shart bo'lgan ma'ruzalar va amaliy mashg'ulotlar mavzularidan tashkil topgan. U magistrantlar nazariy bilimlarini mustaxkamlash va kengaytirishga, o'tilgan mavzularni kengroq va chuqurroq o'rganishga hamda dunyoqarashini yana ham kengaytirishga yordam beradi. Shuningdek, mustaqil ta'limga mo'ljallangan topshiriqlar ma'ruzalar, amaliy, seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rishga qaratilgan. Bundan tashqari, magistrantlar ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirishlari natijasida referat yoki ilmiy maqolalar tayyorlashlari hamda ilmiy-amaliy konferentsiyalarda ilmiy ma'ruzalar qilishlari mumkin.

“Davlat pensiya ta'minoti tizimi” fani bo'yicha mustaqil ta'limning mazmuni va hajmi taqsimoti

№	Fan bo'yicha mazmuni	Mustaqil ta'limga oid bo'lim va mazular	Mustaqil ta'limga oid topshiriq va tavsiyalar	Bajarish muddatlari
1.	“Davlat pensiya ta'minoti tizimi” fanining predmeti, maqsad va vazifalari	Davlat pensiya ta'minoti tizimidagi islohotlar, ularning asosiy yo'nalishlari	referat, taqdimot	amaliy mashg'ulot davomida
2.	Ijtimoiy ta'minot - davlat ijtimoiy siyosatining muhim bo'g'ini sifatida	Ijtimoiy ta'minot shakllari	taqdimot	amaliy mashg'ulot davomida
3.	Davlat pensiya ta'minotining mohiyati va zarurligi	Jahonda mavjud pensiya ta'minoti tizimlari, ularning o'ziga xos xususiyatlari	taqdimot	amaliy mashg'ulot davomida
4.	O'zbekistonda pensiya ta'minoti tizimining shakllanishi va rivojlanish tarixi	XX asrda sivilizatsiyalashgan ijtimoiy ta'minot tizimlarining qaror topishi va shakllanishi	referat, taqdimot	amaliy mashg'ulot davomida
5.	O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minoti tizimi	O'zbekiston Respublikasi pensiya ta'minoti tizimining tashkiliy tuzilishi, uning vazifalari, funktsiyalari va printsiplari	referat, taqdimot, keys-stadi	mavzu yakunida
6.	O'zbekiston Respublikasi pensiya ta'minoti tizimining qonuniy-huquqiy asoslari	O'zbekiston Respublikasida Davlat pensiya ta'minotining huquqiy asoslari.	klaster, taqdimot	amaliy mashg'ulot davomida
7.	Davlatning pensiya ta'minoti borasidagi	Pensiya ta'minoti borasidagi ijtimoiy siyosatni amalga oshirish	referat, taqdimot,	mavzu yakunida

	siyosati	mexanizmi, uning dastak va vositalari.	keys-stadi	
8.	Davlat pensiya ta'minoti tizimini boshqarish organlari	O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minoti tizimini boshqaruvchi organlar.	referat, taqdimot	amaliy mashg'ulot davomida
9.	Pensiya ta'minotini mablag' bilan ta'minlash manbalari	Davlat pensiya ta'minotini moliyallashtirish manbalari.	tahliliy ish, taqdimot	amaliy mashg'ulot davomida
10.	O'zbekiston Respublikasi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi	Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi daromadlari va xarajatlari, tarkibi va tuzilishi	tahliliy ish, taqdimot	amaliy mashg'ulot davomida
11.	O'zbekiston Respublikasi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi budjetini rejalashtirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash	Pensiya ta'minoti moliyaviy resurslari barqarorligini ta'minlovchi omillar.	referat, taqdimot	oraliq nazoratda
12.	O'zbekiston Respublikasi Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasidan to'lanuvchi pensiyalarning turlari, ularni hisoblash va to'lash tartibi	Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasidan to'lanuvchi pensiyalarning turlari, ularni hisoblash va to'lash tartibi	tahliliy ish, taqdimot	amaliy mashg'ulot davomida
13.	Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha boshqa nafaqalarni tayinlash va to'lash tartibi	Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha boshqa nafaqalarning turlari, ularni tayinlash va to'lashni tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar	referat, taqdimot	amaliy mashg'ulot davomida
14.	Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimi	Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish	referat, taqdimot	amaliy mashg'ulot davomida
15.	Xorijiy davlatlar pensiya ta'minoti tizimlari	Rivojlangan xorijiy davlatlar pensiya tizimlari modellari	referat, taqdimot, keys-stadi	mavzu yakunida
16.	O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minoti tizimi taraqqiyoti istiqbollari	Pensiya ta'minoti xizmatlarini avtomatlashtirish istiqbollari	tahliliy ish, taqdimot	amaliy mashg'ulot davomida

3.2. KURS ISHLARI BO'YICHA USLUBIY KO'RSATMALAR

“Davlat pensiya ta’minoti tizimi” fani bo’yicha kurs ishi tanlangan mavzu bo’yicha natijalarni umumiy yaxlitlikka ega ilmiy va amaliy fikrlarni aks ettiruvchi loyihaviy ishdir. Kurs ishi “Davlat pensiya ta’minoti tizimi” fani rivojlanishining zamonaviy darajasiga, iqtisodiyotning rivojlanish tendentsiyalariga doir masalalarini aks ettirishga mos kelishi kerak.

Kurs ishi nafaqat nazariy ahamiyati, mavzuning dolzarbligi va erishilgan natijalarning amaliyotga tadbiqu, balki uning uslubiy tayyorgarlik darajasi hamda rasmiylashtirilishiga qarab baholanadi. Kurs ishini yozishning eng muhim bosqichi - bu qo’yilgan savollarning o’zaro nazariy va amaliy aloqadorligini ta’minlash. Kurs ishining tarkibiy tuzilishini to’g’ri belgilash talabaga kurs ishining maqsadi va vazifalarini aniq qo’yish hamda ko’zlangan natijaga erishish yo’llarini, shuningdek, kurs ishini tayyorlash bosqichlarini to’g’ri tanlashga imkon yaratadi. Kurs ishining tarkibiy tuzilishini oqilona va sifatli ishlab chiqilishi talabaga izlanishning oldiga qo’yilgan maqsad hamda natijalarini to’g’ri ifodalash, fikrlarni bayon etish uslublari va kurs ishini tayyorlash bosqichlarini ajratish imkonini beradi.

Kurs ishi talabaning ilmiy jihatdan etukligi hamda “Davlat pensiya ta’minoti tizimi” fani bo’yicha chuqur bilimga va amaliy ko’nikmaga egaligini namoyon qilishi zarur. Kurs ishida o’rganiladigan masalalarning nazariy jihatlari, aniqlangan muammolarini, qo’yilgan ilmiy va amaliy vazifalarni tahlil qilish hamda muammolarni hal etishni ko’zlangan holda bir-biriga mantiqiy mos reja tuziladi va shu asosida yoziladi. Talaba kurs ishi bo’yicha izlanish natijalarini yoritishda davlat pensiya ta’minotini tashkil qilishning o’ziga xosligini hisobga olib, chet davlatlarning tajribalarini va amaliy yutuqlarni umumlashtirgan holda pensiya siyosatining xususiyatlarini, belgilangan muammolarning echimini topish yo’l-yo’riqlarni ishlab chiqadi va bartaraf qilish usullarini tavsiya etadi.

Kurs ishini himoya qilishga quyidagi umumiy talablar qo’yiladi:

- o’rganilayotgan muammo bo’yicha mavjud iqtisodiy adabiyotlarni chuqur tahlil qilish;
- kurs ishida chizma va jadvallarni muayayn tizimga keltirilgan holda rasmiylashtirish;
- kurs ishi bo’yicha to’plangan materiallarni tanqidiy o’rganish;
- taklif va tavsiyalarning asoslab berilishi;
- talaba tomonidan fikrning ketma-ketlikda, muayayn izchillikda bayon qilinishi;
- qo’yilgan talablar bo’yicha kurs ishining rasmiylashtirilishi.

Kurs ishi o’quv rejaga ko’ra 5A231301 – Pensiya ishi ta’lim yo’nalishida nazarda tutilgan.

Kurs ishlarining namunaviy mavzulari:

1. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va yangilash sharoitida davlat pensiya ta’minotining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, zarurligi va vazifalari.

2. Pensiya ta’minoti - davlatning ijtimoiy instituti sifatida.

3. Jahonda mavjud pensiya ta’minoti tizimlari, ularning o’ziga xos xususiyatlari.

4. Jahon amaliyotida pensiya tizimlarining kelib chiqish tarixi.

5. Sobiq sovet davri pensiya ta’minoti tizimining xususiyatlari.

6. Mustaqil O’zbekiston pensiya ta’minoti tizimining shakllanishi va rivojlanishi

7. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va yangilash sharoitida davlatning pensiya ta’minoti borasidagi siyosatining mazmuni va vazifalari.

8. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va yangilash sharoitida ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda pensiya ta’minotining tutgan o’rni va ahamiyati.

9. Zamonaviy sharoitda pensiya ta’minoti borasidagi ijtimoiy siyosatni amalga oshirish mexanizmi dastak va vositalari.

10. Davlat pensiya ta’minotining qonuniy-huquqiy asoslari, ularni takomillashtirishning zarurligi.

11. “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to’g’risida”gi Qonuni, mazmuni, ahamiyati, takomillashtirishning zarurligi.

12. “Fuqarolarning jamg’arib boriladigan pensiya ta’minoti to’g’risida”gi Qonun, mazmuni va ahamiyati.
13. Davlat pensiya ta’minotini tartibga soluvchi me’yoriy-huquqiy hujjatlar va ularni takomillashtirish.
14. Davlat pensiya ta’minotini boshqarishning tashkiliy va iqtisodiy asoslari.
15. Davlat pensiya ta’minotini boshqarish organlari, ularning guruhlanishi.
16. Davlat pensiya ta’minotini boshqarish organlarining tashkiliy tuzilishi, funksiyalari, huquq va majburiyatlari.
17. Ijtimoiy sug’urtaning mohiyati, ahamiyati, pensiya ta’minotidagi o’rni.
18. Pensiya ta’minotining moddiy va moliyaviy asoslari.
19. Pensiya ta’minotini mablag’ bilan ta’minlash manbalari, ularning guruhlanishi.
20. Pensiya ta’minotini mablag’ bilan ta’minlash manbalarini mustahkamlash masalalari.
21. Budjetdan tashqari Pensiya jamg’armasining mohiyati va zarurligi.
22. Budjetdan tashqari Pensiya jamg’armasining tarkibiy tuzilishi va asosiy vazifalari.
23. Pensiya jamg’armasining daromadlari, ularning tarkibi, shakllanish mexanizmi.
24. Pensiya jamg’armasi xarajatlari tarkibi.
25. Pensiya jamg’armasining moliya bozoridagi ishtiroki.
26. Davlat pensiyalarining turlari, amal qilish mexanizmi.
27. Yoshga doir pensiyalarning tayinlanish shartlari.
28. Nogironlik pensiyalari, ularni tayinlash asoslari.
29. Boquvchisini yo’qotganlik pensiyalarining tayinlanishi shartlari.
30. Pensiya miqdorini aniqlash tartibi, uni takomillashtirish masalalari.
31. Pensiyalarni hisoblash, tayinlash va to’lash tartiblari, ularni takomillashtirish yo’llari.
32. O’zbekiston Respublikasi budjetdan tashqari Pensiya jamg’armasi budjetini rejalashtirish va moliyaviy barqarorligini ta’minlash masalalari.
33. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va yangilash sharoitida jamg’arib boriladigan pensiya ta’minotining mazmuni va ahamiyati.
34. Jamg’arib boriladigan pensiya tizimi mablag’larini shakllantirish va ulardan foydalanish.
35. Jamg’arib boriladigan pensiya ta’minotida ishtirok etuvchi tomonlarning huquq va majburiyatlari.
36. Jamg’arib boriladigan pensiya ta’minoti tizimini boshqarish.
37. Xorijiy davlatlar pensiya tizimlariga qiyosiy xarakteristika.
38. Rivojlangan xorijiy davlatlar pensiya tizimlari.
39. MDH davlatlari pensiya ta’minoti tizimlarining o’ziga xos xususiyatlari.
40. O’zbekiston Respublikasida pensiya ta’minotining tashkiliy-huquqiy asoslarini isloh qilishning zarurligi.
41. Pensiya ta’minotini boshqarish tizimini takomillashtirish.
42. Pensiya ta’minoti moliyaviy manbalarini mustahkamlash masalalari.
43. Pensiya ta’minoti mablag’laridan foydalanish ustidan nazoratni samarali tashkil qilish.
44. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va yangilash sharoitida pensiya ta’minotini samarali boshqarishdagi muammo va yechimlar.
45. O’zbekiston Respublikasida pensiya ta’minoti tizimi taraqqiyoti istiqbollari

4. REYTING BAHOLASH TIZIMI

4.1. Reyting nazorati jadvali

Reyting nazorati turlari	Semestr haftalari																			Ballar	Saralash ballari	
	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	20	Attestatsiya			
JN	0-5			0-6			0-6			0-6			0-6			0-6				0-35	39	
ON	0-17									0-18										0-35		
\sum (JN+ON)	0-70																					0-70
YaN																			0-30	0-30	0	
Jami	0-70																			0-30	0-100	56

Izoh: Semestr haftalari soni ta'lim mutaxassisligining o'quv rejasi va o'quv jarayoni grafigiga muvofiq belgilanadi va farqlanishi mumkin (18-19 haftalar qishki ta'til davri hisoblanadi).

Reyting nazorati turlari	Semestr haftalari																			Ballar	Saralash ballari	
	23	24	25	26	27	28	29	30	31	32	33	34	35	36	37	38	39	40	Attestatsiya			
JN	0-5			0-6			0-6			0-6			0-6			0-6				0-35	39	
ON	0-17									0-18										0-35		
\sum (JN+ON)	0-70																					0-70
YaN																			0-30	0-30	0	
Jami	0-70																			0-30	0-100	55

**Izoh: Semestr haftalari soni ta'lim mutaxassisligining o'quv rejasi va o'quv jarayoni grafigiga muvofiq belgilanadi va farqlanishi mumkin.*

4.2. JN bo'yicha baholash mezonlari

JNda amaliy mashg'ulotlar o'zlashtirilishi bo'yicha yuqoridagi jadvalda keltirilgan semestr haftalari kesimida har bir mashg'ulotda magistrantning o'zlashtirishiga mos ravishda mezon asosida 0-2 (yoki har hafta bo'yicha 0-6) ballgacha jami 0-35 ballgacha jamlanishi belgilangan.

4.3. ON bo'yicha baholash mezonlari

ON ma'ruza mashg'ulotlari materiallari asosida bir semestr davomi 2 marta o'tkaziladi. ON bo'yicha talaba jami 0-35 (har birida 0-17 /0-18) ballgacha jamlashi mumkin.

Fanning o'qitilgan mavzulari bo'yicha o'zlashtirish nazorati turli shakllarda o'tkazilishi mumkin. Mazkur fandan ON test sinovi shaklida o'tkazilganda testlar soni va ularga mos ravishdagi mezon 0-17 /0-18 ball kesimida kafedra tomonidan alohida belgilanadi.

4.4. Σ (JN+ON) bo'yicha baholash mezonlari

Σ (JN+ON) 0-70 gacha bo'lgan reyting ballari quyidagi mezonlarga muvofiq umumlashtirilishi belgilangan:

Baholash mezonlari	Reyting ballari		Σ (JN+ON)
	JN	ON	
Fan mashg'ulotlari mavzulari bo'yicha har tomonlama chuqur va mukammal bilimga ega. Nazariy va amaliy mashg'ulotlarda pensiya ta'minoti tizimi faoliyati bilan bog'liq masalalar bo'yicha xulosa va qaror qabul qila oladi, mustaqil mushohada yurita oladi, amalda qo'llay oladi, mohiyatini tushuntira oladi, aytib beradi, tasavvurga ega.	30-35	30-35	60-70
Fan mashg'ulotlari mavzulari bo'yicha to'la bilimga ega. Mashg'ulotlarda pensiya ta'minoti tizimi faoliyati bilan bog'liq masalalar bo'yicha mustaqil mushohada yurita oladi, amalda qo'llay oladi, mohiyatini tushuntira oladi, aytib beradi, tasavvurga ega.	25-29	25-29	50-69
Fan mashg'ulotlari mavzulari bo'yicha qoniqarli bilimga ega. Amaliy mashg'ulotda pensiya ta'minoti tizimi faoliyati bilan bog'liq masalalar bo'yicha mohiyatini tushuntira oladi, aytib beradi, tasavvurga ega.	20-24	20-24	39-49
Fan mashg'ulotlari mavzulari bo'yicha qoniqarsiz bilimga ega. Amaliy mashg'ulotda pensiya ta'minoti tizimi faoliyati bilan bog'liq masalalar yuzasidan aniq tasavvurga ega emas, bilmaydi.	0-19	0-19	0-38

4.5. YaN ni baholash mezonlari

YaN "Yozma ish" yoki "Test sinovi" shaklida (0-30) ballgacha belgilan mezon asosida yoki majmual shaklda Yozma ish + test sinovi shaklida (6/24) ballik tizim asosida o'tkaziladi.

5. DASTURNING INFORMATSION-KOMMUNIKATSION VA USLUBIY TA'MINOTI

Mazkur fanni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy interfaol metodlari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya (mediata'lim, amaliy dastur paketlari, prezentatsion, elektron didaktik) texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan.

O'quv jarayonini tashkil etishda mavzularni ko'rgazmali vositalardan, slaydlar, diaproektor va jadvallardan foydalanish asosida o'rganish ko'zda tutilgan. Ayrim amaliy mashg'ulotlarni bajarishda shaxsiy kompyuterlardan foydalanish tavsiya etiladi. Tahlillar, prognozli ko'rsatgichlarni shaxsiy kompyuterda bajarish, diagrammalarni, elektron jadvallarni Excel dasturi bilan ishlash orqali yorqin namoyon etish mumkin.

"Davlat pensiya ta'minoti tizimi" fanini o'rganishda magistrant amaliy yordam tariqasida pensiya tizimi faoliyati yakunlariga oid hisobot materiallari, pensiya ta'minoti tizimini boshqarish organlarining Nizomlari, Pensiya jamg'armasi daromadlari va xarajatlari yuzasidan rejaviy va hisobot ma'lumotlari va boshqa amaliy materiallar, tegishli chizmalar, jadvallar, slaydlar, tarqatma materiallar bilan ta'minlanadi.

5.1. Asosiy adabiyotlar:

1. Karimov I.A. “Bosh maqsadimiz – keng ko’lamli islohotlar va modernizatsiya yo’lini qat’iyat bilan davom ettirish” – T.: O’zbekiston. 2013 y. 32 b.
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning “Bosh maqsadimiz – keng ko’lamli islohotlar va modernizatsiya yo’lini qat’iyat bilan davom ettirish” mavzusidagi ma’ruzasini o’rganish bo’yicha o’quv qo’llanma. -T.: “O’qituvchi” NMIU, 2013 y. – 276 bet.
3. Qosimova G.A. Budjetdan tashqari fondlar. O’quv qo’llanma. –T.: IQTISOD-MOLIYA. 2007. -148 b.
4. Qosimova G.A, Karimova Z.X. Budjetdan tashqari fondlar. O’quv qo’llanma. –T.: “IQTISOD-MOLIYA”. 2009. - 202 b.
5. Xaitov A.A., Ziyadullaev M. O’zbekistonda pensiya ta’minoti va xorij tajribasi. –T.: “Adolat”. 2009. - 172 b.
6. Srojiddinova Z.X. O’zbekiston Respublikasi budjet tizimi. T.:Infocom. 2010.
7. Борисенко Н. Ю. Пенсионное обеспечение: Учебник / — М.: Издательско-торговая корпорация «Дашков и К°», 2009. — 576 с.
8. Пенсионный фонд Российской Федерации: Учебник / Л. В. Федоров. — 2-е изд. — М.: Издательско-торговая корпорация «Дашков и К°», 2010. — 396 с.

5.2. Qo’shimcha adabiyotlar:

9. Vahobov A., Malikov T. Moliya: Umumdavlat moliyasi. O’quv qo’llanma. T.: Iqtisod-moliya, TMI-2010, 595 b.
10. Malikov T., Vahobov D.R., Moliya: chizmalarda. O’quv qo’llanma. T.: Iqtisod-moliya, 2010, 660 b.
11. Xaydarov M., Suvonqulov A., Sugirbaev B., Nurmatov B. “Davlat budjeti ijrosining g’aznachilik tizimi”. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”.2010 y.
12. Malikov T., Jalilov P., Budjet-soliq siyosati. Monografiya. T.: Akadernashr. 2011, 472 b.
13. O’zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990-2010 yillar) asosiy tendentsiya va ko’rsatkichlari hamda 2011-2015 yillarga mo’ljallangan prognozlar: statistik to’plam. T.: “O’zbekiston” NMIU, 2011.
14. Карчевский В.В Целевые бюджетные и внебюджетные фонды. Вузовский учебник. 2011г.
15. Федоров Л.В, Дашков и К. Пенсионный фонд Российской Федерации. Учебник(изд:2). 2012г.
16. Internet saytlari:
www.mf.uz
www.gov.uz
www.lex.uz
www.stat.uz
www.budget.ru
www.undp.uz
www.publicfinance.uz

